

**TYUTORLIK FAOLIYATI ORQALI TALABALARDA LIDERLIK, MA'NAVIY
YETUKLIK VA KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH**

Malikova Dildoraxon Qobilovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

e-mail:soul_db@mail.ru men: 974042050

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida tyutorlik faoliyatining mazmun-mohiyati hamda uning talabalarda liderlik ko'nikmalari, ma'naviy yetuklik va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida tyutorlarning pedagogik faoliyati, talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishdagi ahamiyati asoslangan holda yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *tyutorlik faoliyati, liderlik, ma'naviy yetuklik, kasbiy kompetensiya, talaba, oliy ta'lim, innovatsion yondashuv, pedagogik faoliyat.*

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi jadal o'zgarishlar va yangilanishlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Ilm-fan va texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi, o'quv jarayonini tashkil etishda innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi hamda mehnat bozori talabalarining tobora ortib borishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Natijada an'anaviy ta'lim shakllari asta-sekin moslashuvchan va zamonaviy modellarga almashib bormoqda. Bunday sharoitda talabalardan nafaqat chuqur nazariy bilimga ega bo'lish, balki ijodiy va tanqidiy fikrlash, tezkor moslashish hamda murakkab vaziyatlarda noodatiy va samarali qarorlar qabul qilish kabi muhim kompetensiyalar ham talab etilmoqda.

Universitetlar faqat bilim manbai bo'lib qolmasdan, balki yangi qadriyatlar va kompetensiyalarni shakllantiruvchi maydon sifatida faoliyat yuritishi lozim. Ular talabalar jamoada ishlashni, munozara olib borishni, mas'uliyatli qarorlar qabul qilishni hamda tez o'zgarayotgan dunyoda yashash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallaydigan maskanga aylanmoqda. [1]

Zamonaviy ta'lim muassasalari tobora ko'proq fanlararo integratsiya, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va amaliy tajribani ta'lim jarayoniga uyg'unlashtirishga yo'naltirilmoqda. Bu esa o'z mamlakatida ham, xorijda ham raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi. Oliy ta'lim tizimida yoshlarni har tomonlama yetuk, raqobatbardosh va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. Talabalardan nafaqat chuqur bilim, balki mustaqil fikrlash, liderlik, tashabbuskorlik hamda kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lish talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, tyutorlik faoliyati talaba shaxsini rivojlantirishning muhim pedagogik mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Talabalarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar bugungi jamiyat talabalariga mos, tashabbuskor va mas'uliyatli yetakchilarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvlar ta'lim jarayonining turli

yo'nalishlarini kampa6 olib, talabalarda liderlik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali muhit hamda amaliy faoliyatlarni yaratishga yo'naltirilgan.[2]

Tyutor talabaning ta'lim jarayonidagi yo'lboshchisi, maslahatchisi va ma'naviy ko'makchisidir. Tyutorlik faoliyati orqali talabaning ta'limga moslashuvi, kasbiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va ma'naviy dunyoqarashi shakllantiriladi.

Tyutorlik faoliyati talabaning individual rivojlanishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, u ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida tyutorlar quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: talabalarning ta'lim jarayoniga moslashuviga ko'maklashish; ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish; iqtidorli va muammoli talabalar bilan individual ishlash; yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish; kasbiy yo'naltirish va motivatsiyani kuchaytirish. Tyutorlik faoliyatining samaradorligi talaba va tyutor o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik hamda individual yondashuvga bog'liqdir. [3]

Talabalarning o'zini o'zi boshqarish faoliyatida namoyon bo'ladigan liderlik sifatleri talabalarning ta'lim jarayoni davomida, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatidagi ishtiroki, shuningdek, ularning ishga joylashuvi va kasbiy o'sishi asosida kuzatish (o'zini kuzatish) orqali kompleks baholanadi. Shu asosda subyektiv mezon va ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular: kognitiv, statusli, emotsional va faoliyatga oid mezonlarni o'z ichiga oladi. Ushbu mezonlarning namoyon bo'lish darajasiga qarab liderlik sifatlarining shakllanganlik darajasi yuqori, o'rta va past bosqichlarga ajratiladi. Talabalarni past darajadan yuqori darajaga olib chiqish talabalar o'zini-o'zi boshqarish tizimining liderlik sifatlerini shakllantirishga samarali ta'siri natijasi hisoblanadi.[4]

Bugungi kunda liderlik ko'nikmalari yoshlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Tyutorlar tomonidan tashkil etiladigan seminar-treninglar, davra suhbatleri, loyiha ishlari va ijtimoiy tadbirlar talabalarda liderlik sifatlerini rivojlantiradi. Liderlik quyidagi kompetensiyalar orqali namoyon bo'ladi:

- tashabbuskorlik;
- jamoa bilan ishlash;
- mas'uliyatni his qilish;
- muammolarga yechim topish;
- kommunikativ madaniyat.

Tyutor talabalarni mustaqil qaror qabul qilishga, o'z fikrini erkin bayon etishga va jamoada faol bo'lishga undaydi. Talabalik davrida shakllangan liderlik sifatleri yoshlarning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi hamda kelgusidagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba-lider oliy ta'lim muassasasi hayotida faol ishtirok etishi bilan ajralib turadi, u talabalar orasida tashkilotchi, volontyorlik faoliyati, talabalar kengashi hamda turli madaniy-ma'rifiy va ijtimoiy tadbirlarda faol qatnashadi. Bunday faoliyat talabalarda mas'uliyat hissini, tashkiliy qobiliyat va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabalar orasidagi liderlik jamoaviylik muhitini shakllantirishda ham muhim Talabalar lider talabalar o'rtasida hamkorlik va o'zaro hurmat muhitini yaratishga intiladi. U turli tadbirlar va loyihalarni tashkil etish orqali talabalarni birlashtiradi, g'oya almashish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda jamoaviy ruhni mustahkamlashga ko'maklashadi. Natijada talabalar jamoasida ijtimoiy faollik va hamjihatlik darajasi ortadi.[5]

Ma'naviy yetuklik insonning axloqiy qarashlari, milliy qadriyatlarga hurmati va vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanganlik darajasidir. Talabalarda ma'naviy yetuklikni rivojlantirishda tyutorlarning o'rni beqiyosdir. Tyutorlar tomonidan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, kitobxonlik kechalari, tarixiy obidalarga sayohatlar, buyuk ajdodlar merosini targ'ib etuvchi uchrashuvlar tashkil etilishi yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitadi va natijada talabalarda milliy qadriyatlarga sadoqat, vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyati shakllanadi.

Kasbiy kompetensiya bu talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi hisoblanadi. Tyutorlik faoliyati kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi, individual rivojlanish xaritalarini ishlab chiqish, amaliy mashg'ulotlar va mentorlik dasturlarini tashkil etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali talabalar o'z kasbiga nisbatan mas'uliyatli, ijodkor va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, tyutorlik faoliyati oliy ta'lim tizimida talabalarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ma'naviy yetukligini shakllantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini oshirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida tyutorlarning faoliyati yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bois oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik tizimini yanada takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va tyutorlarning kasbiy salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Soatova SH. Innovatsionniye podxodi k razvitiyu liderskix kachestv u studentov: opit uspehnix universitetov (2025). Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(6), 1647-1651.
2. [Nikulina I.V.](#) Formirovaniye liderskix kachestv u studentov. Samarskiy natsionalniy issledovatel'skiy universitet imeni akademika S.P. Korolyova. **Vipusk:** Tom 5, № 4 (2016)
3. Malikova D. "Talaba - ota-ona – tyutor» triosi pedagogik munosabatlar kontekstida. "Ota-onalarning farzand tarbiyasiga oid metodik bilimlarini rivojlantirish mexanizmlari: muammolar va yechimlar" respublika ilmiy-amaliy anjumani 2025-yil 6-may. <https://ilmiyanjumanlar.uz/archive/article/id/13033>

4. Shigapova L.P. Formirovaniye liderskix kachestv studentov vuza v deyatelnosti organov samoupravleniya: Diss... kand. ped. nauk, 228 s., 2008, Kazan, Institut pedagogiki i psixologii professionalnogo obrazovaniya Rossiyskoy akademii obrazovaniya
5. Yegorova YE.V. Intensivniye texnologii v razvitii liderskix kachestv studentov //Vestnik Baltiyskoy pedagogicheskoy akademii. № 95/2010, 118-121 s.
6. Karimova V. Yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish masalalari. – Toshkent, 2021.